



# INDONESIAN JOURNAL OF MODERN KNOWLEDGE AND REVIEW

INDONESIAN JOURNAL OF  
MODERN KNOWLEDGE AND  
REVIEW gives authors the opportunity  
to publish their original research papers  
in a multidisciplinary field.



We have a team of prestigious academic  
journal reviewers from renowned  
universities around the world.

**JOURNAL**

**IF** IF(Impact Factor)12.57



**E** E-ISSN 8776-0932

**L** ISSN-L 8776-0932



## INDONESIAN JOURNAL OF MODERN KNOWLEDGE AND REVIEW

**is a monthly international online magazine.**

IJOM.KAR is a journal covering topics of interest to a wide readership in various fields of chemistry, biology, environmental science, computer science, engineering, sociology psychology, anthropology, economics, mathematics, neuroscience, medicine, astronomy, geology, geography, Political Science, Linguistics, Education, Agriculture, Archeology related fields.

[ISSN-L8776-0932](#)

[E-ISSN8776-0932](#)

[IF\(Impact Factor\)12.57 / 2024](#)

IJOM.KAR has many advantages aimed at strengthening research skills and enhancing academic career. Journal publications are an important part of academic career advancement.

Easy and fast paper publishing process.

[We have a team of prestigious academic journal reviewers from renowned universities around the world.](#)

Open access journal database for high visibility and promotion of your articles.

INDONESIAN JOURNAL OF MODERN KNOWLEDGE AND REVIEW gives authors the opportunity to publish their original research papers in a multidisciplinary



1.	Ta'lim samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar <b>Yusupova Zamira Zaripovna</b> <b>Yusupov Baxtiyor Muzaffarovich</b>	4
2.	TIBBIYOT YUZASIDAN KASB VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK BILAN BOG'LIQ JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAVSIFI <b>Ergasheva Ozoda Erkin qizi</b>	14
3.	Oliy matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash <b>Maxsudov Odiljon Xusanovich</b>	22
4.	Inson bosh suyagining turli rakurslarda ko'rinishi <b>Madaminova Muslimaxon</b> <b>Mamatqulov Rashidbek Ravshanbekovich</b>	30
5.	MUSTAQILLIK YILLARIDAGI TASVIRIY SAN'ATNI O'QITILISHI <b>Ergasheva Orifaxon Xolmuratovna</b>	41



## Ta'lim samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar

**Yusupova Zamira Zaripovna**

Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyari universiteti  
katta o'qituvchisi

Elektron pochta: [yusupovaz677@gmail.com](mailto:yusupovaz677@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15651013>

**Yusupov Baxtiyor Muzaffarovich**

Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, 3- bosqich talabasi

[yusupovv17@icloud.com](mailto:yusupovv17@icloud.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15651013>

**Annotatsiya:** Ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu maqola ta'lim samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlar haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol metodlar, ta'lim, samaradorlik, o'quvchi, o'qituvchi.

**Аннотация:** Повышая активность между студентами и преподавателем в учебном процессе, служит активизации усвоения знаний студентами и развитию их личностных качеств. Использование интерактивных методов способствует повышению эффективности урока. Основными критериями



интерактивного обучения являются: проведение неформальных дискуссий, возможность свободно излагать и излагать учебный материал, небольшое количество лекций, но большое количество семинаров, создание возможностей для проявления инициативы студентами, предоставление заданий для работы в малых группах, больших группах, классных коллективах, выполнение письменных работ и другие методы, имеющие особое значение в повышении эффективности учебной работы. В данной статье рассматриваются интерактивные методы, повышающие эффективность обучения.

Ключевые слова: Интерактивные методы, обучение, эффективность, студент, преподаватель.

**Abstract:** Increasing the activity between students and the teacher in the educational process serves to activate the acquisition of knowledge by students and the development of their personal qualities. The use of interactive methods helps to increase the effectiveness of the lesson. The main criteria of interactive learning are: conducting informal discussions, the opportunity to freely present and present educational material, a small number of lectures, but a large number of seminars, creating opportunities for students to take initiative, providing assignments for work in small groups, large groups, class groups, writing and other methods that are of particular importance in increasing the effectiveness of educational work. This article discusses interactive methods that increase the effectiveness of learning.

**Keywords:** Interactive methods, learning, effectiveness, student, teacher.

Interfaol mashg'ulot samaradorligi omillari

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.



Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Uni Blum taksonomiyasi deb nomlanadi. (Taksonomiya-borliqning murakkab tuzilgan sohalarini tasniflash va sistemalashtirish nazariyasi). U tafakkurni bilish qobiliyatlari rivojlanishiga muvofiq ravishdagi oltita darajaga ajratdi.

Unga ko'ra tafakkurning rivojlanishi bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish, baholash darajalarida bo'ladi. Shu har bir daraja quyidagi belgilar hamda har bir darajaga muvofiq fe'llar namunalari bilan ham ifodalanadi, jumladan:

Bilish-dastlabki tafakkur darajasi bo'lib, bunda o'quvchi atamalarni ayta oladi, aniq qoidalar, tushunchalar, faktlar va shu kabilarni biladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: qaytara bilish, mustahkamlay olish, axborotni etkaza olish, aytib bera olish, yozish, ifodalay olish, farqlash, taniy olish, gapirib berish, takrorlash.

Tushunish darajasidagi tafakkurga ega bo'lganda esa, o'quvchi faktlar, qoidalar, sxema, jadvallarni tushunadi. Mavjud ma'lumotlar asosida kelgusi oqibatlarni taxminiy tafsiflay oladi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: asoslash, almashtirish, yaqqollashtirish, belgilash, tushuntirish, tarjima qilish, qayta tuzish, yoritib berish, sharhlash, oydinlashtirish.

Qo'llash darajasidagi tafakkurda o'quvchi olgan bilimlaridan faqat an'anaviy emas, no'anaviy holatlarda ham foydalana oladi va ularni to'g'ri qo'llaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: joriy qilish, hisoblab chiqish, namoyish qilish, foydalanish, o'rgatish, aniqlash, amalga oshirish, hisob-kitob qilish, tatbiq qilish, hal etish.

Tahlil darajasidagi tafakkurda o'quvchi yaxlitning qismlarini va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni ajrata oladi, fikrlash mantiqidagi xatolarni ko'radi, faktlar va oqibatlar orasidagi farqlarni ajratadi, ma'lumotlarning ahamiyatini baholaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: keltirib chiqarish, ajratish, tabaqalashtirish, tasniflash, taxmin qilish, bashorat qilish, yoyish, taqsimlash, tekshirish, guruhlash.

Umumlashtirish darajasidagi tafakkurda o'quvchi ijodiy ish bajaradi, biror tajriba o'tkazish rejasini tuzadi, bir nechta sohalardagi bilimlardan foydalanadi. Ma'lumotni yangilik yaratish uchun ijodiy qayta ishlaydi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: yangilik yaratish, umumlashtirish, birlashtirish, rejalashtirish, ishlab chiqish, tizimlashtirish, kombinastiyalashtirish, yaratish, tuzish, loyihalash.



Baholash darajasidagi tafakkurda o'quvchi mezonlarni ajrata oladi, ularga rioya qila oladi, mezonlarning xilma-xilligini ko'radi, xulosalarning mavjud ma'lumotlarga mosligini baholaydi, faktlar va baholovchi fikrlar orasidagi farqlarni ajratadi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq fe'llar namunalari: tashxislash, isbotlash, o'lchash, nazorat qilish, asoslash, ma'qullash, baholash, tekshirish, solishtirish, qiyoslash.

Interfaol usullar ko'p turli bo'lib, ularning hammasi ham har qanday progressiv usullar kabi eng avvalo, o'qituvchidan mashg'ulot oldidan katta tayyorgarlik ko'rishni talab qiladi.

Interfaol mashg'ulotning ushbu jadvalda ko'rsatilgan ayrim jihatlarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'quv rejadagi fanlarni o'qitishda qaysi mavzular bo'yicha interfaol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur. Bunda hap bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.
2. Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.
3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Shularga o'xshash farqlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam A.Navoiy o'zining mashhur "Mahbub ul-qulub" asari muqaddimasida shunday yozgan edi: "Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi bila nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklariga ko'ra bahra olg'aylar...". Bunda shu asarni har kim turlicha, ya'ni o'z fahmi idroki darajasidagina tushunishi, o'zlashtirishi, foyda ola bilishi va amalda qo'llay bilishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan biz interfaol ta'lim usullarining an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin.

Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda qadim zamonlardan beri ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan talabalar hamda talabalar bilan talabalar o'rtasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi shakllarda qo'llab kelingan.



Bu usullar talabalarning nutq, tafakkur, mulohaza, zehn, iste'dod, zakovatlarini o'stirish orqali ularning mustaqil fikrlaydigan, komil insonlar bo'lib etishishlariga xizmat qilgan.

Hozir interfaol mashg'ulotlarni olib borishda ma'lumki, asosan interfaol usullar qo'llanilmoqda. Kelgusida esa bu usullar ma'lum darajada interfaol texnologiyaga o'sib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu interfaol usul hamda texnologiya tushunchalarining o'zaro farqini bizningcha, shunday ta'riflash mumkin.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga muvofiq ravishda turli darajada o'zlashtiradi.

Interfaol ta'lim texnologiyasi - har bir o'qituvchi barcha o'quvchilar ko'zda tutilgandek o'zlashtiradigan mashg'ulot olib borishini ta'minlaydi. Bunda har bir o'quvchi o'z motivlari va intellektual darajasiga ega holda mashg'ulotni oldindan ko'zda tutilgan darajada o'zlashtiradi.

Interfaol mashg'ulotlarni amalda qo'llash bo'yicha ayrim tajribalarni o'rganish asosida bu mashg'ulotlarning sifat va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi ayrim omillarni ko'rsatishimiz mumkin. Ularni shartli ravishda tashkiliy-pedagogik, ilmiy–metodik hamda o'qituvchiga, o'quvchilarga, ta'lim vositalariga bog'liq omillar deb atash mumkin. Ular o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishini nazarda tutishimiz lozim.

Tashkiliy-pedagogik omillarga quyidagilar kiradi:

-o'qituvchilardan interfaol mashg'ulotlar olib boruvchi trenerlar guruhini tayyorlash;

-o'qituvchilarga interfaol usullarni o'rgatishni tashkil qilish;

-o'quv xonasida interfaol mashg'ulot uchun zarur sharoitlarni yaratish;

-ma'ruzachining hamda ishtirokchilarning ish joyi qulay bo'lishini ta'minlash;

-sanitariya-gigiena me'yorlari buzilishining oldini olish;

-xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni ta'minlash;

-davomatni va intizomni saqlash;

- nazorat olib borishni tashkil qilish va boshqalar.



### Ilmiy-metodik omillarga quyidagilar kiradi:

-DTS talablarining bajarilishini hamda darsdan ko'zda tutilgan maqsadga to'liq erishishni ta'minlash uchun maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol usullarni to'g'ri tanlash;

-interfaol mashg'ulot ishlanmasini sifatli tayyorlash;

-interfaol mashg'ulotning har bir elementi o'rganilayotgan mavzu bilan bog'liq bo'lishini ta'minlash;

-mashg'ulotlar mavzusi va mazmunini so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar asosida belgilash;

-zamonaviy yuqori samarali metodlarni qo'llash;

-o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oldindan aniqlash va shunga mos darajadagi interfaol mashg'ulotlarni o'tkazish;

-interfaol mashg'ulot uchun yetarlicha vaqt ajrata bilish va boshqalar.

### O'qituvchiga tegishli omillar:

-mavzuni sayoz bilishi;

-nutqidagi kamchiliklar: talaffuz, adabiy til me'yorlari, grammatika qoidalari, notanish yoki xorijiy so'zlar, atamalarining ma'nosini tushuntirmasdan qo'llashi, shevaga xos so'zlarni ko'p qo'llashi, yozib namoyish qilishda xatoga yo'l qo'yishi va tushunarsiz yozishi;

-o'zini tutishi va pedagogik xulqidagi nuqsonlar;

-kiyinishi va tashqi ko'rinishiga e'tiborsizligi;

-ta'lim vositalaridan unumli va to'g'ri foydalana olmasligi;

-kuzatuvchanlik, vaqtning o'tishini his qilish, uni to'g'ri taqsimlash ko'nikmasi etishmasligi;

-tinglash ko'nikmasi yetishmasligi;

-o'quvchiga xayrixohlik, samimiylilik, u bilan hamkorlikda ish olib borish ko'nikmasi yetishmasligi;

-mantiqiy bog'liqlik va izchillikka rioya qilmaslik va boshqalar.



o'quvchilarga tegishli omillar:

- davomat pastligi, mashg'ulotga kechikib kelishi;
- zarur tayyorgarliksiz kelishi;
- ilmiy atamalarni bilmasligi;
- diqqatni jamlay olmasligi;
- eshitish qobiliyatidagi va tinglash ko'nikmasidagi kamchiliklar;
- qiziqishning pastligi, fikr yuritishning sustligi;
- dars mavzusi bo'yicha tayyorgarlik darajasining pastligi;
- manfaatdorlikning kamligi va boshqalar.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalarga tegishli omillar:

-ta'lim vositalarining etishmasligi, ta'mirtalab yoki yaroqsiz holda bo'lishi, sifatli va zamonaviy vositalarning kamligi;

-mashg'ulot mavzusini o'zlashtirish uchun maqsadga muvofiq vositalar turlarini va sonini to'g'ri tanlamaslik;

-vositalarni mashg'ulot boshlanmasidan oldin ishga tayyorlab qo'ymaslik;

-vositalardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, interfaol mashg'ulotlarni yuqorida qisqacha bayon qilingan omillarni hisobga olgan holda tashkil qilish va olib borish bu mashg'ulotlarning sifati va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi.

Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:



1. Moderator – ta’lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.
2. Trener–o’quvchilarning ko’nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o’tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o’tgan mutaxassis.
3. Tyutor–masofadan o’qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta’minlash.
4. Fasilitator–darsda ko’makchi, yo’naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.
5. Mentor–ustoz, o’rgatuvchi (yakka va guruhli tartibda).
6. Kouch–ta’lim oluvchilarning to’liq o’zlashtirishlari uchun yordam ko’rsatuvchi repetitor, instruktor, trener. Amaliyot davomida amaliy mashg’ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtihonlarga yoki sport bo’yicha tayyorgarlik ko’rish).
7. Konsultant–maslahat berish, tushuntirish, qo’shimcha ma’lumot berish.
8. Lektor–nazariy ma’lumotlar bilan tanishtiruvchi.
9. Ekspert – kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.
10. Innovator–yangiliklarni ta’lim mazmuni va mashg’ulotlar jarayoniga joriy qilish.
11. Kommunikator–o’zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.
12. O’qituvchi–mashg’ulot mavzusi bo’yicha ko’zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o’quv jarayoniga rahbarlik.
13. Menejer–tashkiliy–pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.
14. Spekter–kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.
15. Assistent–mashg’ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo’llashga tayyorlash, mashg’ulot ishtirokchilariga yordam ko’rsatib turish.
16. Sekretar–zarur ma’lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o’rnatilgan tartibda saqlash.



17. Texnolog–pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.

18. Metodist-ta'lim-tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

19. Koordinator-loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

20. O'quvchilar – ta'lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

Interfaol metodlarni mashg'ulot maqsadiga muvofiq tanlash

Interfaol mashg'ulot turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishlicha tayyorgarlik ko'riladi. Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat.

Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.



Bunda yangi bilimlarni berish, ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, mustahkamlash, bilimlarni takrorlash, amalda qo'llash mashg'ulotlarida hamda o'quv fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir mavzu bo'yicha mashg'ulot uchun eng maqsadga muvofiq bo'lgan interfaol yoki boshqa metodlarni to'g'ri tanlash nazarda tutiladi.

To'g'ri tanlangan metodlarni qo'llash mashg'ulotning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. -T.: 2005.
3. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
4. Azixodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.
5. Azixodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. — T.: O'qituvchi, 2004.



## TIBBIYOT YUZASIDAN KASB VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK BILAN BOG‘LIQ JINOYATLARINING KRIMINALISTIK TAVSIFI

Toshkent davlat yuridik universiteti

tayanch doktoranti

**Ergasheva Ozoda Erkin qizi**

[ergashevao2001@gmail.com](mailto:ergashevao2001@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15677003>

### Annotatsiya

Ushbu maqolada tibbiyot sohasida kasbiy vazifalarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifi yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida bu turdagi jinoyatlarning huquqiy-me‘yoriy asoslari, jinoyatni sodir etish usullari, tergov qilishdagi murakkabliklar, jinoyat izlari va ekspertiza turlarining roli o‘rganilgan. Sud-tibbiy, psixiatriya, biologik va kimyo-toksikologik ekspertizalarning amaliy qo‘llanilishi misolida tahlillar olib borilgan. Tadqiqot yakunida bu yo‘nalishdagi qonunchilikni takomillashtirish, ekspertiza sohasini kengaytirish va tergov amaliyotini kuchaytirish bo‘yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kriminalistik tavsif, tibbiyot sohasidagi jinoyatlar, beparvolik, ekspertiza, tergov, tibbiyot xodimi, jinoyat izlari, sud-tibbiy ekspertiza.

**Kirish.** Bugungi kunda tibbiyot sohasida mehnat faoliyatini olib borayotgan xodimlar tomonidan va ularga nisbatan sodir etilyotgan jinoyatlar soni oshib bormoqda. Xususan, kasb yuzasidan beparvolik yohud loqaydlik natijasida tibbiyot xodimlarining jinoyat sodir etish holatlari oshmoqda, bunga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin, masalan, tibbiyot xodimlarining yetarli malakaga ega bo‘lmasligi, tibbiy-sanirtariya qoidalariga amal qilinmasligi, xususiy shifoxonalarning oshib borishi va bu ayrim shunday shifoxonalarda sifatning pasayishiga, nazoratning



yetarli darajada emasligiga sabab bo'lganligi, kasalliklarning oshib borayotganligi va boshqa sabablarni keltirib o'tishimiz mumkin.

Tibbiyot yuzasidan kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq jinoyatlarni kriminalistik tavsifiga to'xtalishdan oldin, "tibbiyot xodimi" tushunchasiga qonuniy ta'rifni ko'rib chiqishimiz lozim, "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 265-I-son Qonunining 1-va 2-bandlariga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasida tibbiyot va farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga oliy yoki o'rta maxsus tibbiyot o'quv yurtini tamomlaganlik to'g'risida diplom olgan shaxslar ega bo'ladilar.

Tibbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslar ham O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatini litsenziyalash bo'yicha maxsus komissiyaning xulosasi asosida xalq tabobati usullaridan foydalangan holda tibbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladilar".

Yuqoridagi qonunning bandlarida tibbiyot xodimi tushunchasiga emas, balki tibbiyot va farmasevtika faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega shaxslar haqida ta'rif berib o'tilgan, "tibbiyot xodimi" tushunchasiga qonuniy ta'rif qonun hujjatlarida aniq belgilab o'tilmagan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi ham, Jinoyat kodeksi ham shular jumlasidandir. Biroq "Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 276-son Qarori asosida davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha tarif setkalari keltirib o'tilgan bo'lib, tibbiyot va farmasevtika xodimlarining lavozim darajalari va ularga haq to'lash masalalari keltirilgan, biroq ta'rif keltirib o'tilmagan, qolaversa ushbu hujjat davlat muassasalari tibbiyot va farmasevtika xodimlariga haq to'lashni qamrab oladi, xususiyl sektorini nazarda tutmaydi.

Tibbiyot yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik yohud lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq jinoyatlar sirasiga qanday jinoyatlar kiradi?

Tibbiyot yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik bilan bog'liq jinoyatlar asosan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi III bobi, ya'ni hayot yoki sog'liq uchun xavfli jinoyatlar bobidan o'rin olgan bo'lib, asosan 116-moddani qamrab oladi. Ushbu moddaga ko'ra:

"Shaxsning o'z kasbiga nisbatan beparvoligi yoki insofsizlik bilan munosabatda bo'lishi tufayli kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada



bajarmaganligi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa,

uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko‘rsatmaganligi badanga o‘rtacha og‘ir yoki og‘ir shikast yetkazilishiga sabab bo‘lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yildan besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi” .

Yuqoridagi moddaning ikkinchi bandida nazarda tutilgan kasalga yordam ko‘rsatishi shart bo‘lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko‘rsatmasligi sirasiga aholiga tibbiy va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish vazifalarini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu yordamlarni ko‘rsatish tartibi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilanadi: “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Vazirlar Mahkamasining 696-sonli qarori va “Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2838-sonli qarori.

Ushbu maqolada tibbiyot yuzasidan kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifini tahlil qilar ekanmiz, qaysi jihatlarni ko‘rib chiqishimizni aniqlashtirib olishimiz lozim.

Asosiy qism. Tibbiyot yuzasidan kasb vazifalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bo‘liq jinoyatlarning kriminalistik jihatarini yoritishdan oldin, jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tushunchasiga to‘xtalib o‘tsak:

“Jinoyatlarning kriminalistik tavsifi - jinoyat va jazo to‘g‘risidagi qonunda belgilab qo‘yilgan ijtimoiy jihatdan xavfli g‘ayrihuquqiy qilmishlarning ko‘rib chiqilayotgan turlari eng muhim tomonlari to‘grisidagi umumlashtirilgan daliliy ma‘lumotlardan hamda ularga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimidan iborat” .



Demak, kriminalistik tavsif jinoyatning eng muhim tomonlari to'g'risidagi umumlashtirilgan daliliy ma'lumotlar va bu ma'lumotlarga asoslangan ilmiy xulosalar va tavsiyalar tizimi hisoblanadi, masalan, jinoyatning sodir etish usullari, jinoyatchi shaxsi, jinoyat sodir etish motivi, jinoyat sodir etish vaqti kabi omillar.

Tibbiyot yuzasidn kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq jinoyatlarni kriminalistik tavsifini ko'rib chiqsak:

1. Jinoyat sodir etilishining tipik usullari bu jinoyat qanday usullarda amalga oshiriladi — masalan, tibbiyot sohasiga doir jinoyatlarda noto'g'ri tashxis qo'yish, dori vositalarini noto'g'ri qo'llash, muolajani kechiktirish va hokazolar bo'lishi mumkin.

2. Jinoyat sodir bo'lishining sharoitlari va vaqti – jinoyat qachon, qanday muhitda, qanday vaziyatda sodir etilishi odatiy bo'lishi (masalan, tungi navbatchilikda yoki favqulodda vaziyatda).

3. Jinoyat izlari — bu jinoyatni sodir qilgan shaxsning harakatlaridan qolgan moddiy, biologik yoki hujjatli belgilar, masalan:

- hujjatlarni soxtalashtirish;
- bemor tanasida operatsiyaga doir izlar;
- noto'g'ri dori vositalarini qo'llash;
- audio/video yozuvlar.

4. Jinoyatni sodir etuvchi shaxsning portreti (kriminalistik portret) – bu jinoyatlarni odatda kim sodir etadi? Ularning:

- kasbi (masalan, shifokor, hamshira, feldsher);
- yoshi, tajribasi;
- psixologik holati (charchoq, loqaydlik) tahlil qilinadi.

5. Jabrlanuvchi shaxsining xususiyatlari – bemorlarning yoshi, sog'lig'i, holati va ularning shifokorga qanchalik bog'liqligi tahlil qilinadi.

6. Jinoyatning tipik oqibatlari – odatda qanday zararlar kelib chiqadi:

- salomatlikka og'ir zarar;
- nogironlik;



- bemorning o‘limi;
- psixologik travmalar.

7. Tergovga oid xususiyatlari, masalan:

- qaysi ekspertizalar tayinlanadi;
- guvohlar qanday so‘roq qilinadi;
- qanday hujjatlar tekshiriladi;
- tergovning murakkablik darajasi va shu kabilar.

Demak, tibbiyot yuzasidan kasb vazifalarini lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsini jinoyat sodir etishning tipik usullari, jinoyat sodir bo‘lishining sharoitlari va vaqti, jinoyat izlari, jinoyatni sodir etuvchi shaxsning portreti(kriminalistik portret)i, jabrlanuvchi shaxsining xususiyatlari, jinoyatning tipik oqibatlari, tergovga oid xususiyatlariga ko‘ra qisqacha tahlil qilib o‘tdik. Tibbiyot yuzasidan kasb vazifalarni lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarni tergov qilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan sud-ekspertizasi turlari qanday?

Tibbiyot sohasiga doir jinoyatlar sodir etilganda eng ko‘p qo‘llaniladigan ekspertiza turlari sifatida O‘zbekiston Respublikasida mavjud davlat sud-tibbiy ekspertiza muassasasida mavjud ekspertiza turlaridan quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

zo‘raki o‘lim, zo‘rluk ishlatilganiga shubha bo‘lgan yoki sud-tibbiyot tekshiruv zaruratini yuzaga keltiradigan boshqa holatlarda murdalar ekspertizasi;

tan jarohatlarining xarakteri va og‘irlik darajasi, yosh, jinsiy holat va sud tibbiyoti sohasidagi maxsus bilimlarni talab etadigan boshqa masalalarni hal etish uchun tirik shaxslar ekspertizasi;

ashyoviy dalillar va biologik obyektlar ekspertizasi (tibbiy-kriminalistik ekspertiza, sud-biologik ekspertiza, sud-gistologik ekspertiza, sud-kimyo ekspertizasi, sud-tsitologik ekspertiza, kimyo-toksikologik ekspertizasi, biokimyoviy ekspertiza, genetik ekspertiza va spektrografik ekspertiza) va boshqalar.

Yuqoridagilar O‘zbekiston Respublikasida sud-tibbiy muassasalarida asosan qo‘llaniladigan ekspertiza turlari hisoblanadi. Xorijiy amalyotda bu jihatlar bir muncha farq qilishi mumkin. Masalan, Ukrainalik olim Paladiichuk.Yning keltirishicha:



“Eng ko’p qo’llaniladiganlari sud-tibbiy ekspertiza va sud-psixiatriya ekspertizasi hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, sud ekspertizalari yuridik adabiyotlarda turli mezonlar asosida tasniflanadi. Maxsus bilim predmetining o‘ziga xosligiga ko‘ra ular quyidagi sinflarga bo‘linadi:

- (1) sud-tibbiy, (2) kriminalistik, (3) sud-psixiatrik, (4) sud-psixologik,
- (5) sud-farmatsevtik va (6) farmakologik, (7) fizik-texnik,
- (8) kimyoviy, (9) tovar ekspertizasi, (10) ekologik va boshqa bir qator turlar”

Yuqoridagilarda biz keltirib o‘tgan ekspertiza turlaridan alohida ajralib turuluvchi sud-farmasevtik, farmakalogik va fizik-texnik ekspertizalarni aytishimiz mumkin. Sud-farmasevtik va sud farmakalogik ekspertiza turlari O‘zbekistonda mavjud emas, biroq shu sohalarni tadqiq etuvchi sud-kimyo va kimyo-toksikologik ekspertizalari mavjud. Biroq ushbu ekspertiza turlari obyekt doiralari juda keng, masalan, sud-kimyo ekspertizasi dorilardan tashqari, zaharli moddalar (pestitsidlar, og‘ir metallar, sanoat chiqindilari), spirtli ichimliklar va alkogol (etanol miqdori, soxta aroq), yonuvchi va portlovchi moddalar (benzin, kerosin, nitratlar), kosmetik vositalar va kimyoviy aralashmalar (teriga zarar yetkazgan holatlarda), narkotik va psixotrop moddalarni ham o‘rganishni qamrab oladi. Fikrimizcha, ekspertizaning yuqoridagi turlarini doirasini toraytirish va maxsuslashtirish ekspertiza o‘tkazish usullari va vaqt omillari ustida samarali ishlashda maqbul hisoblanadi.

Tibbiyot yuzasidan kasb vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlarning kriminalistik tavsifida jinoyat izlarining yo‘qotilishi yoki noaniqligini ham alohida ajratib ko‘rsatishimiz lozim, chunki ushbu jinoyatni sodir etuvchi shaxslar shu sohaning mutaxasislari bo‘ladi va o‘z sodir qilgan jinoyatini yashirishning yoki uni boshqacha tarzda ko‘rsatishning turli usullaridan foydalanishi mumkin. Shu sababli ushbu jinoyatlarni tergov qilishga vakolatli shaxslardan ham ushbu sohada maxsus yohud qo‘shimcha bilimlar talab qilinishi mumkin, qolaversa, ekspert oldiga savollar qo‘yilishida ham, maqbul savolni tanlay bilish, ekspertni aniq va xolisona xulosa berishiga sabab bo‘luvchi savollar qo‘yilishi lozim.

**Xulosa.** Tibbiyot sohasida kasb vazifalarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog‘liq jinoyatlar — ijtimoiy jihatdan xavfli va murakkab huquqbuzarliklar sirasiga kiradi. Bu jinoyatlarni tergov qilishda kriminalistik tavsif elementlaridan samarali foydalanish, jinoyatning aniqligi va adolatli yuridik baho berilishiga xizmat qiladi. Jinoyatlarni sodir etish usullari, ular yuz beradigan



sharoitlar, jinoyat izlari, jinoyatchining psixologik portreti, jabrlanuvchining holati, jinoyat oqibatlar va tergov xususiyatlari – bularning barchasi tizimli ravishda o‘rganilishi lozim.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida “tibbiyot xodimi” tushunchasining aniq huquqiy ta’rifi mavjud emasligi amaliyotda ma’lum chalkashliklarga sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga, tibbiyotdagi beparvolik jinoyatlari bo‘yicha eng ko‘p qo‘llaniladigan ekspertiza turlari sud-tibbiy, sud-psixiatriya, sud-biologik, kimyo-toksikologik va sud-kimyo ekspertizalardir. Garchi O‘zbekistonda sud-farmasevtik va farmakologik ekspertizalar mustaqil tarzda mavjud bo‘lmasa-da, dorilar va kimyoviy moddalarni o‘rganishga ixtisoslashgan ekspertiza turlari mavjud va faoliyat yuritmoqda.

Bu jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda yuqori malakali tergovchilar, soha mutaxassislari, sud ekspertlari hamda to‘g‘ri va puxta shakllantirilgan ekspertiza savollari muhim o‘rin tutadi. Jinoyat izlarining sohani yaxshi biluvchi shaxslar tomonidan yashirish xavfi tergov jarayonining murakkabligiga olib keladi. Shuning uchun bunday jinoyatlar bo‘yicha tergov qilish uslubiyatini takomillashtirish, ekspertiza doiralarini kengaytirish va huquqiy ta’riflarni aniqlashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

#### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

- 1.1. “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 265-I-son Qonuni - <https://lex.uz/ru/docs/-26013#-27204>
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi - <https://lex.uz/docs/-111453>
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi - <https://lex.uz/docs/-97664>
- 1.4. “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 276-son Qarori - <https://lex.uz/docs/-941878#-944165>
- 1.5. “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimidagi tibbiyot tashkilotlarida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga tibbiy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Vazirlar Mahkamasining 696-sonli qarori - <http://lex.uz/uz/docs/-3333284>



1.6. “Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2838-sonli qarori - <https://lex.uz/uz/docs/-3137177>

## II. Ilmiy adabiyotlar:

2.1. Kriminalistika. Darslik. II Mualliflar jamoasi-Toshkent: TDYU, 2018. -338 b

2.2. Paladiichuk Y. The sense of legal expertise in solving tasks of criminal proceedings. Scientific Bulletin of Uzhhorod National University. Series "Law". 2015.34.3.87-89

## III. Internet manbalari:

3.1. <https://forensic.uz/?s=sud-tibbiy+ekspertizasi>

3.2.

<https://www.tribunajuridica.eu/arhiva/An12v4/8.%20Oleksandr%20Shevchuk%20Art.%201.pdf>

3.3. [https://sudexpert.uz/?page\\_id=1024#page-content](https://sudexpert.uz/?page_id=1024#page-content)

3.4. <https://lex.uz/ru/docs/-4172023>



## Oliy matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash

**Maxsudov Odiljon Xusanovich**

Andijon Davlat pedagogika instituti

“Matematika va informatika” kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15677097>

### **Annotatsiya**

*XXI asrda axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi barcha sohalarda tub o'zgarishlar olib keldi. Ta'lim sohasida esa bu o'zgarishlar o'qitish metodikasining shakl-shamoyilidan tortib, uning mohiyatigacha bo'lgan barcha bosqichlarda sezilmoqda. Ayniqsa, oliy matematika kabi nazariy jihatdan murakkab, aniq mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi fanlarda zamonaviy texnologiyalarning o'rnini beqiyos. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini interaktiv, ko'rgazmali va individuallashtirilgan shaklda olib borish imkonini beradi. Shunga qaramay, har qanday vositaning samaradorligi uni faqat ishlatish bilan emas, balki uning **foydali ta'sirini baholash** bilan aniqlanadi. Oliy matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash masalasi — bu nafaqat amaliy, balki nazariy-analitik tahlilni ham talab qiladigan masaladir.*

**Kalit so'zlar:** *GeoGebra, Mathematica, MATLAB, Google Classroom, Moodle, Zoom, MS Teams, Kahoot, Quizizz, Socrative.*

### **Аннотация**

*Беспрецедентное развитие информационных технологий в XXI веке вызвало фундаментальные изменения во всех сферах. В сфере образования эти изменения ощущаются на всех этапах, от формы и стиля методов обучения до их сути. Особенно в таких теоретически сложных дисциплинах, как высшая математика, требующих четкого логического мышления, роль современных технологий несравнима. Информационные технологии позволяют вести образовательный процесс интерактивно, наглядно и индивидуализированно. Тем не менее, эффективность любого инструмента определяется не только его использованием, но и оценкой его полезного эффекта. Вопрос оценки эффективности информационных технологий в*



*обучении высшей математике — вопрос, требующий не только практического, но и теоретического и аналитического анализа.*

**Ключевые слова:** *GeoGebra, Mathematica, MATLAB, Google Classroom, Moodle, Zoom, MS Teams, Kahoot, Quizizz, Socrative.*

### **Annotation**

*The unprecedented development of information technology in the 21st century has caused fundamental changes in all areas. In the field of education, these changes are felt at all stages, from the form and style of teaching methods to their essence. Especially in such theoretically complex disciplines as higher mathematics, which require clear logical thinking, the role of modern technologies is incomparable. Information technologies allow the educational process to be conducted interactively, visually and individually. However, the effectiveness of any tool is determined not only by its use, but also by the assessment of its useful effect. The issue of assessing the effectiveness of information technology in teaching higher mathematics is a question that requires not only practical, but also theoretical and analytical analysis.*

**Key words:** *GeoGebra, Mathematica, MATLAB, Google Classroom, Moodle, Zoom, MS Teams, Kahoot, Quizizz, Socrative.*

XXI asrda axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi barcha sohalarda tub o'zgarishlar olib keldi. Ta'lim sohasida esa bu o'zgarishlar o'qitish metodikasining shakl-shamoyilidan tortib, uning mohiyatigacha bo'lgan barcha bosqichlarda sezilmoqda. Ayniqsa, oliy matematika kabi nazariy jihatdan murakkab, aniq mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi fanlarda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyos. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini interaktiv, ko'rgazmali va individuallashtirilgan shaklda olib borish imkonini beradi.

Shunga qaramay, har qanday vositaning samaradorligi uni faqat ishlatish bilan emas, balki uning **foydali ta'sirini baholash** bilan aniqlanadi. Oliy matematika fanini o'qitishda axborot texnologiyalarining samaradorligini baholash masalasi — bu nafaqat amaliy, balki nazariy-analitik tahlilni ham talab qiladigan masaladir.

Axborot texnologiyalari (AT) ta'limda turli vazifalarni bajaradi. Bular:

- O'quv materiallarini vizual va interaktiv tarzda taqdim etish;
- Talabaning individual o'zlashtirish tezligiga mos ravishda ishlash;



- Bilimlarni tahlil qilish va nazorat qilish imkoniyatini yaratish;
- Dars materiallarini elektron shaklda tarqatish va yig'ish;
- Talabaning faol ishtirokini ta'minlash.

### **Oliy matematika o'qitish jarayonida qo'llaniladigan asosiy axborot texnologiyalari.**

1. Dasturiy vositalar: **GeoGebra** – algebraik va grafik muammolarni vizuallashtirish uchun; **Mathematica**, **MATLAB** – analitik hisob-kitoblar, modellar, differensial tenglamalarni yechish uchun; **Desmos** – oddiy grafik kalkulyatorli interfeys yordamida grafiklarni real vaqt rejimida chizish.

2. Onlayn platformalar: **Google Classroom**, **Moodle** – topshiriqlar berish, nazorat qilish, materiallar almashish uchun; **Zoom**, **MS Teams** – onlayn darslar, ekran almashish, virtual doskalar yordamida interaktivlik yaratish.

3. Interaktiv baholash tizimlari: **Kahoot**, **Quizizz**, **Socrative** – jonli testlar, viktorinalar orqali dars faolligini oshirish va tezkor baholash.

**Oliy matematika darslarida axborot texnologiyalari qo'llanilgandagi pedagogik yondashuvlar mavjud bo'lib, bular: Vizual ta'lim** – ko'plab matematik tushunchalar (funksiya grafigi, limit, integral maydoni) vizual vositalar bilan ancha tez va oson tushuntiriladi. Masalan, hosilaning geometrik ma'nosi yoki qatorlar yaqinlashuvini an'anaviy usulda emas, animatsiyali grafiklar yordamida tushuntirish samaralidir; **Moslashtirilgan ta'lim** – AT yordamida har bir talaba o'z bilim darajasiga mos tempda o'qiydi. Masalan, Moodle platformasida qiyinlik darajasi bo'yicha testlar tartiblanib, individual yondashuvga zamin yaratiladi; **Kollaborativ ta'lim** – Jamboard yoki Google Docs kabi vositalar yordamida talabalar bir vaqtning o'zida biror matematik masalani yechib, o'zaro fikr almashadilar.

**Samaradorlikni baholash tushunchasi va uning o'rni aniqlash uchun avvalo samaradorlik tushunchasi va uni nima uchun aniqlash lozim degan savolni mazmunan yoritib olishimiz zarur.**

Samaradorlik — bu qo'llanilgan metod yoki vositaning natijadorligini o'lchash mezonini bo'lib, quyidagilar orqali aniqlanadi: o'quv natijasi (bilim darajasi); o'zlashtirish ko'rsatkichi; o'qitish xarajatlariga nisbatan foyda (vaziyatdan kelib chiqib); talabaning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtiroki.

Samaradorlikni baholashdan maqsad: texnologiyalarning real foydasini aniqlash; ularning dars jarayoniga qo'shgan hissasini aniqlashtirish; kelgusida



texnologiyalarni takomillashtirish va yangilarini tanlashda asos bo'lishi; ta'lim sifatini barqaror oshirib borish.

**Axborot texnologiyalari samaradorligini baholash mezonlari:** Ta'limiy mezonlar - talabning darsdan keyingi test natijalari, amaliy topshiriqlarni bajarish sifati, mustaqil ishlash va tushunchalarni qo'llash darajasi; Faollik mezonlari - onlayn darslardagi qatnashish darajasi, masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish, platformalarda berilgan topshiriqlarni vaqtida topshirish; Psixologik mezonlar – talabning texnologiyalardan foydalanishdagi qulaylik darajasi, dars jarayonida qiziqish va ishtiyoqning ortishi, stress darajasining kamayishi (an'anaviy metodlarga nisbatan) kabilar kiradi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi oliy matematika fanini o'qitishda samaradorlikni oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Turli tadqiqotlar va so'rovlar natijalari quyidagicha ko'rinishda ifodalanadi:

**Ta'lim sifatining oshishi** – Xalqaro tadqiqotlar natijasida zamonaviy axborot texnologiyalarini faol qo'llaydigan oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rtacha bilim darajasi 15-20% ga oshgani aniqlangan (UNESCO, 2022); Kompyuter yordamida o'qitish va interfaol ta'lim vositalari murakkab mavzularni tushunishni osonlashtirib, talabalar orasida mavzuga qiziqish darajasini 25% ga oshirishga xizmat qilmoqda.

**Talabalar ishtirokining faollashuvi** – Onlayn testlar va interfaol mashqlar yordamida o'quvchilarning faolligi o'rtacha 30% ga ko'payganligi kuzatilgan (EDUCAUSE, 2021); Moodle va Google Classroom kabi platformalardan foydalangan kurslarda talabalar darslarga muntazam qatnashish darajasi 85% gacha yetgan.

**O'qituvchilar samaradorligi** – Elektron baholash tizimlari yordamida o'qituvchilar darslarni tayyorlash va nazorat qilishga ketadigan vaqtni 40% ga qisqartirishga muvaffaq bo'lishgan (Journal of Educational Technology, 2023); zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish o'qituvchilar uchun dars materiallarini diversifikatsiya qilish va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniyatini oshirgan.

**Masofaviy ta'lim samaradorligi** – Pandemiya davrida masofaviy ta'lim tizimlariga o'tgan muassasalarda oliy matematika fanini o'rganish samaradorligi 10-15% ga kamaygan bo'lsa-da, zamonaviy zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari yordamida bu ko'rsatkich yana tiklangan.



Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalari oliy matematika ta'limining sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalarni to'g'ri va samarali qo'llash uchun doimiy malaka oshirish va resurslarni yangilab borish zarur.

Hozirgi kunda eng mashhur bo'lgan matematikaga doir dasturlarni quyidagilar hisoblanadi.

**1. MATLAB** (Matrix Laboratory) — bu MathWorks kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yuqori darajadagi interfaol dasturlash muhiti va hisoblash platformasidir. MATLAB asosan matematik hisob-kitoblar, grafikalar yaratish, ma'lumotlarni tahlil qilish, modellashtirish va algoritmlar ishlab chiqish uchun qo'llaniladi.

MATLABning afzalliklari:

- Foydalanish uchun qulay va kuchli dasturlash muhiti.
- Keng ko'lamli kutubxonalar va paketlar.
- Grafik va vizual vositalar yordamida ma'lumotlarni oson tahlil qilish imkoniyati.
- Keng jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, ko'plab o'quv qo'llanmalar va darsliklar mavjudligi.

MATLABning kamchiliklari:

- Litsenziya narxi yuqori bo'lishi mumkin.
- Dastlabki o'rganish uchun biroz murakkabliklar bo'lishi mumkin.
- Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda ba'zi cheklovlar mavjud.

MATLAB — oliy matematika ta'limida va ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan kuchli dasturiy vosita bo'lib, murakkab matematik jarayonlarni soddalashtirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

**2. GeoGebra** — bu bepul, interfaol matematika dasturi bo'lib, u algebra, geometriya, statistikasi va hisoblashni birlashtiradi. Dastur ta'lim jarayonida matematik tushunchalarni ko'rgazmali va interfaol tarzda o'rgatish uchun mo'ljallangan. GeoGebra Windows, MacOS, Linux, shuningdek, mobil qurilmalar va veb-platformalar uchun mavjud.

GeoGebra dasturining afzalliklari:

- Bepul va oson yuklab olinadi.
- Foydalanishga qulay, intuitiv interfeys.
- Ko'p tilli qo'llab-quvvatlash va keng o'quv resurslari.



- Keng jamoatchilik va ta'lim sohasidagi ko'plab foydalanuvchilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.
- Matematikaning turli bo'limlarini bir dasturda birlashtiradi.

GeoGebra dasturining kamchiliklari:

- Murakkab matematik modellashtirish uchun ba'zida cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin.
- Ba'zi ilg'or funksiyalar MATLAB yoki Maple kabi professional dasturlarga nisbatan kamroq rivojlangan.
- Internetga bog'liq holatda to'liq funksionallik ba'zan cheklanishi mumkin.

GeoGebra — oliy matematika ta'limida matematik tushunchalarni yanada interfaol, ko'rgazmali va oson tushunarli tarzda o'rgatishda samarali vosita bo'lib, talabalarning matematikani o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

**3. Maple** — bu kanadalik Maplesoft kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan yuqori darajadagi matematik dasturiy ta'minot bo'lib, asosan simbolik va raqamli hisob-kitoblar, matematik modellashtirish, analiz va grafiklarni yaratish uchun mo'ljallangan. Maple o'zining kuchli simbolik hisoblash imkoniyatlari bilan matematika, muhandislik va ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llaniladi.

Maple dasturining afzalliklari:

- Kuchli simbolik hisoblash imkoniyatlari.
- Intuitiv grafik interfeys va foydalanuvchiga qulaylik.
- Keng qamrovli matematik funksiyalar va kutubxonalar.
- Ilmiy va ta'lim sohasida keng qo'llanilishi.
- Dasturlash va avtomatlashtirish imkoniyatlari.

Maple dasturining kamchiliklari:

- Litsenziya narxi yuqori bo'lishi mumkin, bu ta'lim muassasalari uchun to'siq bo'lishi mumkin.
- Ba'zan dastur resurslari ko'p talab qilinadi (kompyuterning tezligi va xotirasi).
- Yangi foydalanuvchilar uchun dastlabki o'rganish qiyinchiliklari bo'lishi mumkin.

Maple dasturi — oliy matematika ta'limi va ilmiy tadqiqotlarda murakkab matematik masalalarni yechishda, modellashtirish va vizualizatsiya qilishda kuchli va qulay vosita hisoblanadi. Simbolik hisoblashdagi yuqori imkoniyatlari uni ta'lim va ilm-fan sohasida keng qo'llashga imkon beradi.

**4. Moodle** (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) — bu bepul va ochiq manbali (open-source) ta'lim boshqaruv tizimi (Learning



Management System — LMS) bo‘lib, onlayn ta‘lim va masofaviy o‘qitish uchun mo‘ljallangan. Moodle dunyo bo‘ylab minglab ta‘lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlar tomonidan qo‘llaniladi.

Moodle dasturining afzalliklari:

- Bepul va ochiq manbali, keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.
- Moslashuvchan va kengaytiriladigan modul tizimi.
- Foydalanishga qulay interfeys va ko‘p tillik qo‘llab-quvvatlash.
- Ko‘plab plaginlar va integratsiya imkoniyatlari (Google Classroom, Zoom, Office 365 va boshqalar).
- Mobil ilova orqali ham ta‘limga qulay kirish.

Moodle dasturining kamchiliklari:

- Dastlabki sozlash va o‘rnatish biroz murakkab bo‘lishi mumkin, ayniqsa texnik bilimlar talab qilinsa.
- Katta hajmdagi foydalanuvchilar uchun server resurslari talab qilinadi.
- Ba‘zi murakkab funksiyalar uchun maxsus plaginlar yoki qo‘shimcha dasturlar kerak bo‘lishi mumkin.

Moodle — oliy matematika ta‘limida zamonaviy va samarali onlayn ta‘lim tizimini tashkil etish uchun juda qulay platforma hisoblanadi. U interfaol darslarni yaratish, ta‘lim jarayonini boshqarish va monitoring qilish imkoniyatlari bilan o‘quv jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**5. Google Classroom** — bu Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan bepul onlayn ta‘lim platformasi bo‘lib, o‘qituvchilar va talabalar uchun masofaviy ta‘lim jarayonini boshqarish va tashkil etish imkonini beradi. Bu platforma Google Workspace for Education (ilgari G Suite for Education) tizimining bir qismi sifatida taqdim etiladi va oson, samarali hamda tezkor ishlash uchun mo‘ljallangan.

Google Classroom dasturining afzalliklari:

- Bepul va qulay foydalanish.
- Google xizmatlari bilan chuqur integratsiya.
- Oddiy va tushunarli interfeys.
- Tez va samarali kommunikatsiya vositalari.
- Mobil qurilmalarda ham to‘liq ishlashi.
- Keng jamoatchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Google Classroom dasturining kamchiliklari:

- Internetga doimiy ulanish talab qilinadi.



- Ba'zi murakkab funksiyalar (masalan, ilg'or baholash yoki statistika) mavjud emas.
- Foydalanuvchilarning Google hisoblari bo'lishi zarur.
- Kengroq ta'lim boshqaruv tizimlari bilan taqqoslaganda kamroq konfiguratsiya imkoniyatlari.

Google Classroom — oliy matematika va boshqa fanlarni masofaviy o'qitishda samarali va qulay platforma hisoblanadi. U ta'lim jarayonini soddalashtiradi, topshiriqlarni boshqarish, baholash va kommunikatsiyani osonlashtiradi hamda o'qituvchilar va talabalar uchun qulay muhit yaratadi.

Oliy matematika fanida bu texnologiyalar matematik formulalarni grafiklar orqali tushuntirish, abstrakt tushunchalarni real modellar bilan bog'lash, murakkab hisob-kitoblarni avtomatlashtirish orqali o'qitish samaradorligini oshiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov R.K. "Oliy matematika fanini axborot texnologiyalari yordamida o'qitish metodikasi" – Toshkent, 2021.
2. To'xtaboyev Sh.I. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida matematik tafakkur rivojlanishi" – O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019.
3. Полат, Е.С. **"Информационные технологии в обучении высшей математике"**. — Москва, 2018. — 240 с.
4. Селевко, Г.К. **"Педагогика и информационные технологии"**. — Санкт-Петербург, 2019.
5. Кузнецов, А.В., Иванов, М.Н. **"Цифровые образовательные технологии в вузе"**. — Москва, 2020.



## Inson bosh suyagining turli rakurslarda ko'rinishi


**Madaminova Muslimaxon**

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi 1- bosqich talabasi

**Mamatqulov Rashidbek Ravshanbekovich**

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15731645>



### **Kirish**

Inson bosh suyagi (cranium) - inson organizmining eng muhim qismlaridan biri bo'lib, miya, eshituv, hid bilish, ko'rish va muvozanat a'zolarini himoya qiladi. Bosh suyagi murakkab



tuzilishga ega bo'lib, u turli suyaklarning birikmasidan tashkil topgan. Har xil rakurslardan qaralganda, bosh suyagining shakli, suyaklararo chegaralar va ularning joylashuvi aniq ko'rinadi. Bu maqolada bosh suyagining old, orqa, yon, yuqoridan va pastdan ko'rinishlari haqida ma'lumot beriladi.

### ***Oldindan korinishi (anterior view)***

Oldindan qaralganda bosh suyagi asosan yuz suyagi tuzilmalari orqali ko'rinadi. Bu rakursda peshona suyagi (os frontale), ikkala yonoq suyagi (os zygomaticum), burun suyagi (os nasale), jag'suyagi (maxilla) va pastki jag' (mandibula) aniq ajralib turadi. Ko'z kosalari (orbita) va burun sohasining tuzilishi ham yaxshi ko'rinadi.


### ***Orqadan korinishi (posterior view)***

Orqa tomondan qaralganda, asosan ensa suyagi (os occipitale) ko'rinadi. Bu rakursda bosh suyagining ensa sohasidagi tuzilmalari, ensa chiqintisi (protuberantia occipitalis externa) va pastki chakka suyaklari (os temporale)ning orqa qismlari aniqlanadi.

### ***Yon tomondan korinishi (lateral view)***

Yon tomondan qaralganda, bosh suyagining chakka (os temporale), tepa (os parietale), peshona (os frontale), yonoq (os zygomaticum) va jag' suyaklari aniq ko'rinadi. Shuningdek, quloq atrofi tuzilmalari, chakka suyakdagi eshituv yo'li (meatus acusticus externus) ham bu rakursda ko'rinadi.


bosh rasmi ustida ishlashning uslubiy bosqichlari ham o'ziga xos xususiyatlarga egaki, ularni rasm chizuvchi, albatta, bilishi kerak. O'quv materialini yaxshi o'zlashtirib olish uchun chizuvchi ushbu ish bosqichida qaysi vazifani amalga oshirishi, tasvir qurishning qaysi jihatlariga alohida e'tibor qaratishi kerakligini bilishi zarur. Talaba naturani kuzatish va tahlil etish hamda rasmini konstruktiv chizish-qurish jarayonida aniq tizimga rioya qilishi kerak.



**Asosiy qism**




Katta yoshdagi kishilarda kalla suyagi choklar bilan birlashgan, chaqaloqlarda bu suyaklar o'rtasida suyaklanmagan qism – liqildoqlar bo'ladi. Odam kallasi 23 suyakdan iborat, ular juft va ayrimlari toq bo'ladi. Odamda bosh miya juda rivojlanganligi uchun kalla suyagining miya qismi (kalla suyagi qutisi) katta, yuz qismi pastga cho'zilgan, hayvonlarda esa yuz qismi oldinga cho'zilgan bo'lib, kalla suyagining asosiy qismini tashkil etadi. Kalla suyagi miya va u bilan birga takomil etgan sezgi a'zolarining tayanchi, ularni tashqi muhit ta'siridan saqlab turadi. Bulardan tashqari, kalla suyagining yuz qismida organizm hayot faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan nafas sistemasining boshlanish qismi – burun bo'shlig'i, ovqat hazm qilish sistemasining boshlanish qismi – og'iz bo'shlig'i va eshitish hamda muvozanatni saqlash a'zolari joylashgan.





Kalla suyagining yuz qismi yuqori jagʻ, bir juft tanglay, yonoq, burun, koʻz yoshi, pastki chigʻanoq, dimogʻ hamda pastki jagʻ va til osti suyaklaridan iborat. Bu suyaklar (pastki jagʻ suyagidan tashqari) bir-biriga oʻzaro chok hosil qilib, pastki jagʻ suyagi esa boʻgʻim orqali birikadi.

**Birinchi bosqich** – kompozitsiyaviy joylashtirish. Ish qogʻoz yuzasida rasm kompozitsiyasini topib, ifoda etishdan boshlanadi. Tasvirni yuzada qanday joylashtirish qulayroq boʻlishini, qaysi



© novikov\_risunok




nuqtadan turib qaralganda shakllarning qurilish xususiyatlari ifodalibroq ko‘rinishini bilish niyatida naturani oldindan har tomonlama o‘rganib, ko‘rib chiqish lozim.

***Ikkinchi bosqich*** – bosh shaklining xarakterli xususiyatlari, o‘lcham munosabatlarini, ya’ni nisbatlarini va boshning kenglikdagi holatini ochib berish.

Bosh shaklining o‘ziga xos xususiyatini ochib berishga kirishishdan oldin talaba haykal-naturani diqqat bilan o‘rganib chiqishi, shakl qurilishining eng muhim xususiyatlarini aniqlab olishi lozim. Rassom, eng avvalo, shaklning umumiy xususiyatini, boshning fazoviy xolatini ilg‘ab oladi, shundan keyingina aloxida qismlar va yaxlitliklar, o‘lchamlararo farqlar, nisbatlarini chamalab aniqlay boshlaydi.

U avvalo, shaklning umumiy massasi, xususiyati mutanosiblik, o‘lchamlararo nisbatlarni belgilab topib yuzaga chiqarishi lozim. Yani yengil chiziqlar bilan boshning umumiy ko‘rinishini ifoda qila olishi kerak.

Manzara san’ati insoniyat madaniyati tarixida muhim o‘rin egallab kelgan. U nafaqat atrof-muhitni, tabiat go‘zalligini tasvirlashga, balki inson va tabiat o‘rtasidagi ruhiy bog‘liqlikni ifodalashga xizmat qiladi. Rassomlar manzarani realistik, impressionistik, ekspressionistik, kubistik, abstrakt va, albatta, dekorativ uslubda ifodalaganlar. Ayniqsa, dekorativ uslub manzaraning estetik, milliy, ramziy va hissiy jihatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.





## Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Baymetov B. "Qalamtasvir".Darslik 1-qism. - Toshkent, 2006.
- 2 Muratov X.X. "Qalamtasvir ",Toshkent, Ijod -print, 2020
- 3 Xalilov R. Рисунок Toshkent "Navrōz" 2013
- 4 B.Boymetov "Portret qalamtasviri " Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma . Toshkent, 2001.
- 5 Tojiev B, Mahkamova S. "Qalamtasvir " ( Dastlabki saboqlar).Metodik qo'llanma. Toshkent 2013



## MUSTAQILLIK YILLARIDAGI TASVIRIY SAN'ATNI O'QITILISHI

**Ergasheva Orifaxon Xolmuratovna**

San'atshunoslik va sport fakulteti, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
yo'nalishi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15740645>

Annotatsiya: Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab Respublikamizda xalq ta'limini tubdan isloh qilish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga olib chiqish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Shu maqsadda 1992-iyulda «Ta'lim to'g'risida»gi qonun e'lon qilindi.

Kalit so'zlar: «Tasviriy san'at» dasturlari, «Tasviriy san'at va badiiy mehnat», «Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi», «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, estetik turkum, san'atshunoslik asoslari, kompozitsiya.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonunda ko'rsatilgan reja va tadbirlarni amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb qaraldi. Natijada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi barcha o'quv fanlari qatori «Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasi» ham tayyorlandi va u O'zbekiston xalq ta'limi Vazirligi Kollegiyasining 5-may 1993-yilgi 5-5-sonli qarori bilan tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada qayd qilinganidek, uni tayyorlashda quyidagi omillar hisobga olingan edi: - mustaqil O'zbekiston sharoitidagi o'zbek bolasini shakllantirishga bo'lgan zamonaviy talablar; - ta'lim-tarbiyani milliy madaniyat va san'at asosida amalga oshirishni kuchaytirish; - ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda O'zbekiston Sharq



mamlakati ekanligini hisobga olish va shu asosda badiiy ta'lim mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritish; - maktabdagi badiiy ta'limni amalga oshirishda bolalarni fikrlashga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishlikni kuchaytirish, ularni yuksak did va madaniyatli qilib shakllantirishga qaratish; - maktabda bolalarni tasviriy san'atdan bilim va malakalarni puxta egallashlariga qaratish, shu asosda tabaqalashtirilgan badiiy ta'limni joriy etish; iriy san'at ta'limi mazmunini dunyo standartlari darajasiga olib chiqish. Bu g'oyalar so'zsiz barkamol komil insonni shakllantirishga zamin bo'lib, unda tasviriy san'atni o'qitishning yaqin va uzoq yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan yo'nalishlari bayon etildi. Konsepsiyadan tegishli xulosalar chiqargan holda tasviriy san'atdan davlat ta'lim standarti va variativ dasturlarni ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi. Natijada 1-4-sinflar uchun 270 soatga mo'ljallangan «Tasviriy san'at va badiiy mehnat», 1-7- sinflar uchun 245 soatga mo'ljallangan

«Tasviriy san'at» dasturlari tayyorlandi. Shuningdek, 1-8-sinflar uchun mo'ljallangan 560 soatli «Tasviriy san'at» dasturi ham ishlab chiqildi. Bu dasturlar ko'p nusxada nashr etilib, amaliyotga joriy etildi. Yangi dastur milliy mustaqillik mafkurasi asosida tayyorlangan bo'lib, u tasviriy san'at o'quv predmetining maqsad va vazifalari, ta'lim mazmuni, moddiy-texnikaviy asoslarda o'z ifodasini topdi. Tasviriy san'at darsliklarini yaratish bilan bir qatorda o'qituvchilar uchun o'quvmetodik adabiyotlar ham tayyorlandi. Natijada R.Hasanov va X.Egamovlarning birinchi sinf o'qituvchilari uchun «Tasviriy san'at va badiiy mehnat darslari» (Toshkent: O'qituvchi, 1997), R.Hasanovning 5-sinf o'qituvchilari uchun «Tasviriy san'at darslari» (Toshkent: O'qituvchi, 1997.) nomli qo'llanmalari chop etildi. 1996-1998- yillar davomida 1-4-sinflar uchun «Tasviriy san'at va badiiy mehnat» darsliklari yaratildi, biroq ulardan 1998-yilda faqat birinchi sinf darsligi chop etildi, xolos. Mazkur darslik O'zbekiston maktablari uchun rus, qozoq, qirg'iz,



turkman, tojik, qoraqalpoq tillarida ham nashr etildi. Boshqa sinflari esa 1999-yilda yangi o‘quv rejalari va ta’limning davlat standartlari ishlab chiqilishi munosabati bilan nashr etilmay qoldi. Ta’limning davlat standartida bu o‘quv predmetiga har bir sinfda haftasiga bir soatdan vaqt ajratilgan edi. 1997-yilda O‘zbekiston Respublikasining

«Ta’lim to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hujjatlarining e’lon qilinishi katta tarixiy voqea bo‘ldi. Unda ta’lim sohasini 1997- 2006 va undan keyingi yillar uchun ish rejasi va taraqqiyoti belgilab berilgan edi.

«Kadrlar tayyoriash milliy dasturi»da estetik turkumdagi fanlami o‘qitilishiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, xususan, uning «Uzluksiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari» qismida uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish prinsiplaridan biri ta’limning ijtimoiylashuvi deb qaraldi. Unda ta’lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish lozimligi qayd etiladi’. Ushbu hujjat asosida barcha fanlar qatori «Tasviriy san’at» o‘quv predmetidan ta’limning davlat standarti ham tayyorlandi. Mazkur standartda o‘quvchilarni 1-7-sinflarda tasviriy san’atdan o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan bilim va malakalar belgilab berilgan edi. Unda tasviriy san’at o‘quv predmetining maqsad va vazifalari, faoliyat turlariga doir ko‘rsatmalar ham bayon etilgan bo‘lib, tasviriy san’at mashg‘ulotlarining turiari sifatida borliqni idrok etish (1-4-sinflar), badiiy qurish yasash (1-4-sinflar), naturaga qarab tasvirlash (1-7-sinflar), san’atshunoslik asoslari (1-7-sinflar), kompozitsiya (1-7-sinflar) bo‘limlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan davlat ta’lim standarti bo‘yicha 1999-yilda o‘quv rejalari o‘zgartirishlar kiritildi. Unga ko‘ra tasviriy san’at o‘quv predmeti 1-7-sinflarda o‘qitilib, uning nomi hamma sinflarda «Tasviriy san’at» bo‘lib qoldi. Bu o‘zgarishlar asosida yangi darsliklar 2001-yilda R.Hasanov



tomonidan 1-3-sinflar uchun tayyorlandi. Bulardan birinchi sinf darsligi 2001-2002-yillarda chop etildi. Mustaqillik yillarida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Xususan, 2002-yilga kelib Toshkent, Buxoro, Namangan, Guliston, Andijon davlat universitetlarida, Nukus, Angren, Jizzax davlat pedagogika institutlarida maxsus fakultet va bo'limlar faoliyat ko'rsata boshladi. Tasviriy san'at o'qituvchilari Xiva, Denov, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Andijon pedagogika bilim yurtlari qoshida ham tayyorlandi. Xullas, bugungi kunda maktab tasviriy san'atini o'qitilishi, mashg'ulotlarini takoniillashtirib borilishi va darslar samaradorligiga erishishning qator metodik asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosida maktab tasviriy san'at o'qituvchilari o'zlarining tasviriy san'at darslari samaradorligi uchun qator metodik imkoniyatlarga egadirlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdirasilov S.F. Tasviriy san'at metodikasi. -T., «Ilm-Ziyo», 2006.
2. Abdullayev N. San'at tarixi 2-jildlik, 2/1 tom.-T., 2001.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

